

## NAQSHBANDIYA TARIQATI SULOLALARI

*Po'latxon Kattayev*

*Toshkent islom instituti Hadis va islom tarixi fanlari kafedrası katta o'qituvchisi  
+998911320806*

**Annotatsiya:** Maqolada XII-XVI asrlarda Mavorounnahrda yashagan so'fiylar sulolalari, Naqshbandiya tariqati, tasavvuf ahllarining yetishib chiqishlari, ular tutgan tariqatlar va ulardan qolgan shajara-yu irshodlar, Naqshbandiya tariqatiga shakllanishi va keyinchalik bu tariqatni izdoshlari uzoq asrlar davomida yanada rivojlantirib tasavvuf olamiga qo'shgan munosib hissalarini haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Tasavvuf, so'fiylar, sulolalar, Naqshband, tariqati, Xo'jagon, silsila, Hamadoniy, avrod, G'ijduvoni, Yassaviy, Mavorounnahr.

O'zbek adabiyoti ko'p yillik va boy tarixga ega bo'lib, ko'plab ijodkorlarni tarbiyalagan. Bu ma'naviyat durdonalarining ko'pchiligi bugungi kunga qadar yetib kelib, din va adabiyot ixlosmandlari, o'quvchi va kitobxonlarning ko'nglidan allaqachon joy olib ulgurgan. Bunday asarlar ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, ma'naviy, ma'rifiy mavzularga bag'ishlanagn bo'lib, ular orqali xalqimizning boy tarixini bilib olish mumkin. Xalqimizning dinga va shu dinimizga asoslangan qadriyatlarimizga sodiqlik bilan amal qilishlari, din va adabiyot, din-jamiyat yo'lidagi xizmatlari nafaqat diyorimizda, balki burun dunyoga mashxur bo'ldi. Ayniqsa tasavvuf ahllarining yetishib chiqishlari, ular tutgan tariqatlar va ulardan qolgan shajara-yu irshodlar, hamon butun dunyoni hayratga solib kelmoqda. Shunday tariqatchilarimizdan biri Bahouddin Naqshbandiy bo'ladilar. U kishi Naqshbandiya tariqatiga asos solganlar va keyinchalik bu tariqatni o'zlarining izdoshlari uzoq asrlar davomida yanada rivojlantirib tasavvuf olamiga munosib hissalarini qo'shishgan.

Naqshbandiya tariqati. Uning ikkinchi nomi Xo'jagon yo'nalishi bo'lib, u shahar va shahar atroflarida rivojlangan va xalq orasida keng tarqalgan. Bu oqimga Xo'ja Yusuf al-Hamadoniyning mashhur shogirdi Xo'ja Abdulxoliq al-G'ijduvoni (vafoti 1179 yoki 1220-y.) murshidlik qilgan. Keyinchalik bu oqimga Xo'ja Bahouddin Naqshband (1318-1389) murshidlik qilgan va shu davrdan e'tiboran Naqshbandiya tariqati butun islom olamiga tarqala boshlagan. Osiyo zaminida eng keng tarqalgan tasavvuf tariqatlaridan biridir. Bahouddin Samosiydan keyin Samarqanddagi shayxlardan ta'lim oladi. Keyin tushida Hakim ota Sulaymon Boqirg'oniyning ishorasi bilan turk shayxlaridan, Xalil Otadan 12 yil saboq olgan. Keyin Amir Kulol, 7 yil Orif Digtaroniy, 5 oy Qusam Shayxdan tarbiya olgan. Ammo haqiqat yuzasidan shuni ta'kidlash lozimki, Bahouddin Uvaysiy bo'lgan va G'ijduvoniyan tarbiyat topgan. Naqshbandiyning Uvaysiyiligini o'zidan oldin o'tgan G'ijduvoni (vafoti 1180 yoki 1220) ruhi va madadidan tarbiyat topganligi bilan izohlanadi. Manbalar tahlili asosida xojaning birinchi ruhiy holatining o'zgarishiga sabab Xoja Ali Romitanii ruhi bo'lganini, uning Naqshband o'zini "Biz Hazrat Azizonning muridimiz", – deb ta'kidlagan. Uning tushida Boqirg'oni (vafoti 1186) ruhi ishorat qilgani va u Xalil Ota tarbiyasini olganini, shundan keyin Xojai Jahon ruhiyati tarbiyasida bo'lganini yozgan. Naqshband buyuk mutasavvif Mansur Halloj (858) ruhidan ham ta'lim olgan. Naql qilinishicha, u



aytgan: “Talab ayyomlarida Mansur Halloj sifati ikki marta menda tug‘yon urdi. Bir dor bor edi. Ikki marta o‘zimni dor ostiga yetkazdim va dedi: “Joying mana shu dordir”. Tangri inoyati bilan bu maqomdan o‘tib keta oldim”. Naqshband buyuk so‘fiylar Boyazid Bastomiy (vafoti 875), Junayd Bag‘dodiy (vaf. 910), Shibliy (861) ruhiy olamidan ham bahra olgan, lekin ular maqomida qolmagan. Manbalarda keyingi ruhiy tarbiya bergan valiy Xoja Hakim at-Termiziy ekanligi ko‘rsatilgan. Hijriy 789-yilda Bahouddin shunday degan: Yigirma ikki yildirki, biz Hakim at-Termiziy tariqatiga ergashamiz va ular besifat edilar. Agar biror kishi bilsa men ham bu zamonda besifatdurman”. Yana Naqshband Xavazan Qushayriy (986) va Fariduddin Attor (vaf. 1220) ruhiyatidan tarbiya olgan. Maqomotda yozilishicha, u aytar edi: “Bizning sulukimiz tariqatda Imom Qushayriy va Shayx Attor aytgan so‘zlariga juda muvofiq keladi”<sup>1</sup>.

Manbalardan ma‘lum bo‘ladiki, Naqshbandga Abu Ali al-Horis Muhosibiy (781), Abu Sayid Abulxayr (967), Abdulloh Ansoriy (1006) va Abdulqodir Giloniy (1077-1166) kabi valiylik ruhini ta‘sir etgan. Bahouddinning “Avrod” asari bor. Avrod “vird” so‘zining ko‘pligidir. Virdni Trimingem uch mazmunda: a) tariqat; b) maxsus duo; v) tariqatning zaruriy duosi” deb talqin etgan. Virdning tariqat ma‘nosida kelishi uning bu yo‘lining asosini tashkil etuvchi duolar tizimi ekanligini anglatadi. “Vird tariqat so‘zining sinonimi bo‘lib, xizmat qilish zarur bo‘lgan yo‘lni anglatadi. Shuning uchun muayyan shayxning virdiga ergashish shu tariqat yo‘liga ergashish demakdir”. Vird tariqatga kirishda ahd marosimida bu yo‘lga kirayotgan kishiga tasbeh bilan birga topshirilgan va kamolot darajalariga muvofiq o‘qishga ijozat berilgan. Trimingem islomdagi tariqatlarni tahlil etib: “Barcha tariqatlar o‘zining shaxsiy, o‘z rahbari ijod etgan avrodiga ega bo‘lgan. Unda tariqatning xususiyati o‘z aksini topgan”, – degan xulosaga kelgan. Tadqiqotchi Naqshbandning “Avrod” nomli asari Naqshbandiya tariqatining xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim manba degan xulosaga keladi.

Biz ilmiy tadqiqotimiz davomida XII-XVI asrlarda yashagan so‘fiylar shajarasiga Abdulxoliq G‘ijduvoniyan boshlanadigan yo‘lni ushbu faslimiz uchun asosiy tadqiqot obyekti sifatida olidik. Undan keyin Abdullxoliq G‘ijduvoniyan shajarasiga mansub XVI asr, yan‘i Temuriylar imperiyasining nihoyasiga yetgan davrigacha bo‘lgan paytda yashagan so‘fiylar, ularning tasavvuf olamida tutgan o‘rni, siyosiy jamiyatga qo‘shgan hissalari keltirildi.

Abdulxoliq G‘ijduvoniyan tariqati tashkil topgan paytda Mavorounnahr diyorida to‘rtta tariqat faoliyatda bo‘lgan. Quyida keltiradigan ma‘lumotlarimiz ushbu nutqimiz dalili sifatida keltirildi. “Hazrati Hamadoniyan to‘rt xalifani tarbiyalaganlar. Bular: Xoja Abdullo Barqiy, Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Ahmad Yassaviyan va Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniylardir. “Qandiya” va “Rashahotu aynul-hayot” kitoblarida keltirilishicha, Hazrati Hamadoniyaning vafotlaridan so‘ng shogirdlari birin-ketin irshod masnadida o‘tiradilar<sup>2</sup>”. Bundan qiyoski, nomlari zikr etilgan to‘rt xalifa ham bir-birlarini ko‘rgan, bir zamondan va bir ustoz ta‘limini olgan insonlardir.

Endilikda biz Naqshbandiya tariqati asoschilaridan bo‘lmish Abdulxoliq G‘ijduvoniyan xususida so‘z yuritarkankanmiz, u kishi tariqatni Ahmad Yassaviyan davom ettirgan degan xulosaga keldik, yani nomlari Xoja Ahmad, taxalluslari esa Yassaviyan, Qul Xoja Ahmad, Qul Ahmad. Tavalludi Yassi shahrida voqe‘ bo‘lgan. Bu zoti bobarakot yassaviya-sultoniya silsilasining asoschisi bo‘lib, O‘rta Osiyo tasavvufining tuzuvchi ustunlaridan biri Hazrati Xoja Yusufi Hamadoniyaning (1140-yil vafot etgan) uchinchi xalifalaridir. “Xoja Ahmad Yassaviyan maqomoti” kitobini yozgan So‘fi Donishmand va

<sup>1</sup> Voxidov R., Maxmudov M., Azimov Yu. Ulug‘ Xojaning ibrat va hikmatlari. – Toshkent: Pedagogik mahorat, 2005. 1-son. – B. 5.

<sup>2</sup> Buxoriy Sadridin Salim. Bahouddin Naqshband yoki yetti pir. – Buxoro, 2006. – B. 11.



“Nihoya” kitobiga sharh yozgan mualliflardan biri Imom Sig‘noqiylarning ta’kidlashlaricha, boshqa tomondan Hazrati Xojaning irodatlari Shayx Shahobiddin Suhravardiy-Siddiqiyga ham ulanar ekan.

Qachonkim Hazrati Xoja Ahmad Yassaviyga navbat yetgach, Buxoro xalqini da’vat etish bilan mashg‘ul bo‘ladilar. Necha vaqtdan so‘ng Hazrati Yassaviyga g‘aybdan ishora bo‘lgach, o‘zlariga tobe bo‘lgan jami as‘hob va muridlarini Hazrati Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniya topshirib, Turkiston tashrifiga safar qiladilar<sup>3</sup>.

Manbalardan shu bo‘ladiki, Hazrati Yusuf Hamadoniy xalifalari Qul Xoja Ahmad Yassaviy va u kshidan keyin (Turkistonga safarlari tufayli) xos shogirdlari Abduxoliq G‘ijduvoniya ushbu, ya’ni davom ettirganlar va keying asrda ikki tariqatning birgalikda faoliyat yuritilishiga mana shu sabab asos bo‘lgan. Ya’ni Yassaviya tariqatidagi jahriya va Naqshbandiya tariqatidagi xufiya zikrlarida sulukni davom ettirganlar. Naqshbandiy so‘fiylardan Muso Xojaning har ikkala yo‘ldan ham foydalanganliklari bunga misoldir: - “Bizning buzurgvorlarimiz ushbu ikki tariqatga ham ruxsatlidurlar, shuning uchun ham Musoxojaga bobolarining jahriya zikriga ijozat berdik<sup>4</sup>”.

Shundan so‘ng Musoxoja naqshbandiya taraqqati shul kungacha naqshbandiya tariqatida faoliyat ko‘rsatib kelgan Musoxoja endi yassaviya-jahriya-sultoniya tariqat sulukiga ham faoliyat ko‘rsata boshlaydi<sup>5</sup>.

Tasavvuf tariqatlari ichida naqshbandiya va yassaviya silsila suluklari bir-birlariga juda yaqin va ma’naviy zamirlari bir ekanligini ushbu misol ko‘rsatib turibdi. Ya’ni bir tariqat rahbari o‘zining yaqin shogirdlaridan birini boshqa tariqat uchun faoliyat ko‘rsatishga undamoqda. Naqshbandiya xufiya tariqati hamda yassaviya-jahriya tariqatlari o‘rtasidagi bu yaqinlik va do‘stlik rishtalariga Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniya va Xoja Ahmad Yassaviylar asos solishgan bo‘lishib, bu munosabatlar Maxdumi A’zam Dahbediy va Shayx Xudoydod Valiylar tomonlaridan yanada mustahkamlangan.

Naqshbandiyaning silsilasi ikki boshqa-boshqa shahobchalar orqali hazrat Ali va hazrat Abu Bakrga borib yetadi. Mashoyix silsilasiga qaraganda, bu tariqat boshqa ba’zi tariqatlar bilan aloqador ekanligi va shunga ko‘ra o‘sha davrda farqli nomlar bilan atalgani ma’lum bo‘ladi. Chunonchi, hazrati Abu Bakrdan Boyazid Bistomiya qadar Siddiqiya, Bistomiydan Abdulxoliq al-G‘ijduvoniya qadar tayfuriya, G‘ijduvoniya Bahouddin Naqshbandga qadar Xojagoniya, Naqshbanddan Xoja Ubaydulloh Ahrorga qadar Naqshbandiya, Xoja Ubaydulloh Ahrordan Ahmad as-Sirhindiya qadar Naqshbandiya-ahroriya, “Mujaddidi alfi soni” nomi bilan mashhur Ahmad as-Sirhindiya Shamsiddin Mazharga qadar Naqshbandiya-mujaddidiya, Shamsiddin Mazhardan Mavlono Xolidiy Bag‘dodiyga qadar Naqshbandiya-mazhariya, Xolidiy Bag‘dodiydan keyin esa Naqshbandiya-xolidiya deya tilga olingan.

## Adabiyotlar:

1. Voxidov R., Maxmudov M, Azimov Yu. Ulug‘ Xojaning ibrat va hikmatlari. – Toshkent: Pedagogik mahorat, 2005. 1-son.
2. Sadridin Salim Buxoriy. Bahouddin Naqshband yoki yetti pir. – Buxoro, 2006.
3. Bahouddin Naqshband yoki yetti pir. – Buxoro, 2006.
4. Ibrohim Haqqul. Xoja Orif Mohitobon. – Toshkent: Yozuvchi, 1996.
5. Xojai Jahon tasavvufiy ta’limoti. Vorisiylik va ma’naviy taraqqiyot. –Toshkent, 2003.
6. Qodirov D., Mavlonova U. Naqshbandiya tariqati silsilasi va tasavvuf allomalarining ma’naviy xislatlari. – Toshkent: Navruz, 2017.
7. Abdullaev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980.

<sup>3</sup> Buxoriy Sadridin Salim. Bahouddin Naqshband yoki yetti pir. – Buxoro, 2006. – B. 12.

<sup>4</sup> Bahouddin Naqshband yoki yetti pir. – Buxoro, 2006. – B. 14.

<sup>5</sup> Buxoriy Sadridin Salim. Bahouddin Naqshband yoki yetti pir. – Buxoro, 2006. – B. 13.

